

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/2025.27.12.T.01.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

SHUKUROV DILMUROD XURSANOVICH

**TANDEM QUYOSH ELEMENTLARI UCHUN YANGI AVLOD
ORGANIK YARIMO'TKAZGICH PIGMENTLAR OLISH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

UO‘K: 667.287.5; 667.287.53; 667.287.548.

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора технических наук (DSc)

Table of contents of the abstract of the dissertation of the doctor (DSc) of technical sciences

Shukurov Dilmurod Xursanovich

Tandem quyosh elementlari uchun yangi avlod organik yarimo‘tkazgich pigmentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish..... 3

Шукуров Дилмурод Хурсанович

Разработка технологии получения органических полупроводниковых пигментов нового поколения для тандемных солнечных элементов..... 29

Shukurov Dilmurod

Development of a technology for obtaining new generation organic semiconductor pigments for tandem solar cells 59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 63

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/2025.27.12.T.01.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

SHUKUROV DILMUROD XURSANOVICH

**TANDEM QUYOSH ELEMENTLARI UCHUN YANGI AVLOD ORGANIK
YARIMO‘TKAZGICH PIGMENTLAR OLISH TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.DSc/T1116. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (nsumt.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Turayev Xayit Xudaynazarovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Vapoyev Husnitdin Mirzoyevich
texnika fanlari doktori, professor

Adilov Ravshan Irkinovich
texnika fanlari doktori, professor

Fayziyev Jaxongir Baxromovich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/2025.27.12.T.01.01. raqamli ilmiy kengashning "3" oktyabr 2026-yil soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, G'alaba Shoh ko'chasi 76v-uy. Tel.: (+99879)-223-49-66, faks: (+99879) 223-53-62, e-mail: info@nsumt.uz).

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 265 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, G'alaba Shoh ko'chasi 76v-uy. Tel.: (+99879)-223-49-66, faks: (+99879) 223-53-62, e-mail: info@nsumt.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" sentyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "16" 09 dagi 27 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.F.Muxiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

S.Sh.Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., dots.

H.M.Vapoyev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi soni va ishlab chiqarish hajmining oshib borishi sababli energiyaga bo'lgan talab ham yildan yilga ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda energiya bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishda eng samarali bo'lgan yechimlardan biri bu muqobil energiyalardan foydalanishdir. Bu esa energiyaga bo'lgan talabni qondirish bilan bir vaqtda elektr energiyasi olish tannarxini kamaytirish hamda noorganik va organik yarimo'tkazgich materiallar asosida arzon va istiqbolli quyosh elementlarini olishga imkon beradi. Ftalosianin asosidagi metallokompleks pigmentlarni sensibilizatorlar sifatida tandem quyosh elementlari uchun ishlatish quyosh elementlarining samaradorligini 30% gacha oshirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Muqobil energiyaga bo'lgan talabning bunday tez o'sishi tadqiqotchilar oldiga ishlab chiqarish amaliyotida nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan noan'anaviy texnologiyalarni yaratish vazifalarini qo'yadi. Bu borada yarimo'tkazgich polimer materiallar, metall va metallas atomlar saqlagan ftalosianin bo'yoq moddalarga asoslangan quyosh nurlariga sezgir fotoelementlardan arzon va ekologik toza elektr energiyasini olish alohida ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda yarimo'tkazgich ftalosianin asosidagi metallokompleks birikmalar hamda polimer bo'yoq pigmentlarga asoslangan yangi quyosh elementlarini yaratish va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Tandem asosida olingan quyosh elementlari amalda foydalanilayotgan quyosh elementlari ichida o'zining moslashuvchan sodda tuzilishi, ekologik tozaligi, iqtisodiy samaradorligi, texnik jihatdan xavfsizligi tufayli hozirda ishlab chiqarishda mavjud kremniy asosidagi quyosh elementlari bilan raqobatlasha oladigan quyosh elementlari bo'lib kelmoqda. Bu borada organik yarimo'tkazgich materiallar asosida tandem fotoelementlarini hosil qilish va ularni indiy, talliy oksidlarining o'rnini bosuvchi yarimo'tkazgich birikmalar sifatida ishlatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda kimyo va energetika sanoat sohalarini rivojlantirish maqsadida zamonaviy talablarga javob bera oladigan yangi turdagi yarimo'tkazgich materiallar olish bo'yicha ilg'or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida "qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish"¹ ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada yashil energiya manbasi hisoblangan tandem quyosh elementlari uchun

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori

ftalosianin asosidagi metallokompleks pigmentlarni olish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-mayda qabul qilingan O'RQ-539-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarning ijrosini ta'minlashda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning (VII). "Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar" hamda II. "Energetika, energiya va resurslarni tejash" kabi ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Ftalosianin, anilin va grafen asosidagi yarimo'tkazgich pigment materiallar olish va ular asosida muqobil energiya manbalaridan biri bo'lgan quyosh energiyasidan arzon, sifatli va ekologik toza elektr energiya olishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan: Dezhou University Yuexing Zhang, University of Science and Technology, China University of Petroleum (East China (Xitoy), University of Ulsan (Janubiy Koreya), Palacký University Olomouc (Chexiya), (Tambov davlat texnika universiteti (Rossiya), Middle East Technical University (METU), Munzur University, Kafkas University, Firat University (Turkiya), San Jose State University, University of Massachusetts Amherst, Macau University of Science and Technology, University of California, Santa Barbara (UCSB), University of California, Santa Barbara (UCSB), Beijing University of Chemical Technology (BUCT), University of Connecticut, University of Tsukuba (Yaponiya), University of Pennsylvania (Yangi Zelandiya), Ftalosianin asosidagi yarim o'tkazgich materiallar bo'yicha Rossiya Fotovoltika laboratoriyasi (Ioffe Instituti), Fizika-Quyosh IICHB materialshunoslik instituti, (O'zbekiston), International Solar Energy Institute (O'zbekiston), Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti, Termiz davlat universiteti kabi Ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilmoqda.

Dunyoda ftalosianin, anilin va grafen oksidi asosida fotoaktiv va fotosensibilizator pigmentlar olish va ular asosida quyosh va yorug'lik nuri asosida arzon, ekologik toza va muqobil energiya ishlab chiqarish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar davomida quyidagi bir qator natijalar olingan, jumladan, mis (II/I) Red Ox mediator va porfirin bo'yoq bilan 14,3% samaradorlikka erishilgan

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <http://www.scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com> va boshqa manbaalar materiallari asosida tayyorlangan.

(Shveytsariya), xlorofill hosilalari bilan tabiiy bo'yoqlar asosida 8% samaradorlikka ega bo'yoq sezgir quyosh elementlari olingan (Malayziya), Spiro OMeTAD va CuSCN tarkibli elektron va kovak transporti materiallari ishlab chiqilgan (Shveytsariya), 15% dan ortiq samaradorlikka ega bo'lgan perovskit va tandem quyosh elementlari olingan (Singapur), 26% samaradorlikka ega yakka o'tishli perovskit quyosh elementi ishlab chiqilgan (Xitoy), perovskit-kremniy tarkibli tandem quyosh elementida 33,9%, qalay (Sn) asosidagi perovskit quyosh elementlarida 14% va qo'shaloq perovskit ($\text{Cs}_2\text{AgBiBr}_6$) tarkibli quyosh elementida 10% samaradorlikka erishilgan (Buyuk Britaniya), fenetilammoniy yodid orqali quyosh elementlaridan foydalanish muddati oshirilgan (Janubiy Korea), grafen va grafen oksidi qatlamlari orqali fotoelementlardagi zaryad taqsimoti yaxshilangan (AQSh), ftalosianin asosidagi barqaror bo'yoq sezgir quyosh elementlari va mis-kalsiyli geteroleptik komplekslarga asoslangan pigmentlar olingan (O'zbekiston).

Dunyoda tandem asosidagi va bo'yoq sezgir quyosh elementlari uchun fotosensibilizator modda sitada ishlatiladigan ftalosianin, anilin va grafen oksidi asosida yarimo'tkazgich pigmentlar ishlab chiqarish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda quyidagi qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, yangi sensibilizator xususiyatiga ega polimer yarimo'tkazgich moddalar poliatsitelen, politiofen, izoindol asosidagi bo'yoq pigmentlar sintezi, ko'rinadigan va yaqin IQ sohada adsorbsiyalovchi porfirin va ftalosianin bo'yoqlari olish, ekologik toza bo'yoq sezgir quyosh elementlar uchun tabiiy bo'yoqlardan xlorofil, antosianinlardan foydalanish; tandem asosidagi quyosh elementlari orqali >35 % samaradorlikka erishish kabi bir qator katta masshtabda ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog'liq muammolarni hal etishda muhim o'rin tutadi. Tarkibida markaziy atom sifatida lantanoid metall ionlari saqlagan hamda ftalosianin xalqalarida turli elektrodonor atomlarga ega funksional guruhlar saqlagan ftalosianin pigmentlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoda ftalosianin, grafen oksidi va anilin asosidagi yarimo'tkazgich pigmentlar olish, xossalarini yaxshilash va ishlatilish sohaslarini kengaytirish bo'yicha F. Yelmas, Hideki Shirakava, Alan Xeger, Alan Mak-Diarmid, T.V. Verniskaya, Qunfei Zhou, Zhen-Fei Liu, Tobin J. Marks, Pierre Darancet, Owen Melville, Benoit Lessard, Timothy Bender, A.Dideikin va Jingbin Zeng kabi olimlar o'z tadqiqotlarini olib borganlar³.

MDH davlatlari olimlaridan A.B. Kilimnik, Y.Y. Kondrakova, I.A. Belogoroxov, I. Aleksandrovich, T. Artur va D. Alexanderlar o'z tadqiqotlarida yarimo'tkazgich metalokompleks pigmentlar olish mexanizmlari, xossalari va qo'llanilish sohalari bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirganlar.

Mamlakatimizda ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlardan A.T. Djalilov, X.X. Turaev, A.M. Nasimov, A.T. Tillayev, X.S. Beknazarov, M.U. Karimov, J.B. Fayziyev, A.G. Mahsumov, G.A. Ixtiyorova,

³ <https://pubs.acs.org/jpcafh/article-abstract/125/19/4055/584734/Electronic-Structure-of-Metallophthalocyanines-MPC?redirectedFrom=fulltext>

X.Sh. Toshpo'latov, M.O. Yusupov, D.A. Nabiyev, S.S. Sodiqov, F.Dj. Mirzayeva va boshqalarning ishlarini keltirib o'tish o'rinli bo'ladi.

Keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda 3d-metall tuzlari, lantan tuzlari, kremniy xlorid, anilin, ftal anhidrid va grafen oksidi asosida quyosh nurlariga sezgir yarimo'tkazgich pigmentlar sintez qilish, ularning yarimo'tkazgich xususiyatlarini, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalarini tadqiqotning zamonaviy usullari yordamida tadqiq qilishdir. Shuningdek, quyosh nurlariga sezgir yarimo'tkazgich kompleks pigmentlar asosida ishlaydigan tandem quyosh elementlarining prinsipial texnologik sxemasini va ishlash prinsipi ilmiy va nazariy jihatdan asoslash, samarali, import o'rnini bosuvchi yangi yarimo'tkazgich materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqish nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2024-2028 yillarga mo'ljallangan FL-8323102103-sonli "Yangi avlod yarimo'tkazgichli tandem quyosh elementlari va ularni samaradorligini cheklovchi elektron-kovak tashish jarayonlari" mavzusidagi fundamental loyihasi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e'lon qilingan "Akademik harakatchanlik" dasturi bo'yicha Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq "Yarimo'tkazgich pigment materiallar sintezi va ularni yangi avlod quyosh elementlarini olishda qo'llash" mavzusidagi 2025-yil AK-25-61-son loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi quyosh nurlariga sezgir bo'yoqlardan tandem asosidagi quyosh elementlarini olish uchun yuqori fotosensibilizatsiya ko'effitsientiga ega, yangi, samarali organik yarimo'tkazgich sezgir bo'yoq materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

3d-metall tuzlari, lantan tuzlari, kremniy xlorid, ftal anhidrid, anilin va grafen oksidi asosida quyosh nurlariga sezgir organik yarimo'tkazgich pigmentlar sintezi hamda sintez jarayonining maqbul sharoitlarini aniqlash;

titan oksidi, rux oksidi va qalay oksidlari asosida maxsus bir tamoni shaffof bo'lgan shisha plastinka tayyorlash;

tandem quyosh elementlari uchun fotoanod sendvich qavat sifatida ishlatiladigan titan oksidi, rux oksidi suspenziyasi olish, shuningdek, quyosh elementlarini tayyorlashda ishlatiladigan elektrolit eritmalar tarkibi metodologiyasini ishlab chiqish;

olingan yarimo'tkazgich materiallarning tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalarini tadqiqotning zamonaviy usullari yordamida, shuningdek, UB-spektrofotometr va volt-amper tahlil natijalaridan ularning fotosensibilizatorlik xususiyatlarini tadqiq qilish;

olingan yarimo'tkazgich materiallarning geometriya, frontier orbitallar, zaryad taqsimoti, yarimo'tkazuvchanlik xossalarini zichlik funksional nazariyasi asosida kvant-kimyoviy tahlil qilish;

quyosh nurlariga sezgir yarimo'tkazgich pigmentlar asosida ishlaydigan tandem quyosh elementlari tomonidan hosil qilingan kuchlanish va tok kuchi qiymatlarini o'lchash hamda turli nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida tegishli qatorlarni tuzish;

yarimo'tkazgich pigment materiallar asosida ishlaydigan tandem quyosh elementlarini tadqiq qilish, ushbu pigment materiallarni olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda iqtisodiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ftalosianin pigmentlar, grafen oksidi, anilin, karbamid, 3d-metall tuzlari, elektrolit eritmalar, tandem quyosh elementlarini hosil qiluvchi shaffof shisha sendvich plastinkalar olingan.

Tadqiqotning predmetini ftalosianin asosidagi metalokompleks pigmentlarning kimyoviy o'zgarishlari, grafenning modifikatsiyasi, quyosh nurlariga sezgir moddalarning kimyoviy barqarorligi, pigmentlar, p-n o'tish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida IQ-spektroskopiyasi, skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), differensial termik tahlil, Keithley (Model 4200-C va RIGOL DM3058) volt-amper tahlili, element tahlili, kvant-kimyoviy tahlil kabi zamonaviy eksperimental tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

anilin, ftal ангидрид, карбамид, графен ва графен оксиди ҳамда ба'зи 3d металл тuzlari asosida yarimo'tkazgich pigment materiallar sintez qilingan;

anilin, ftal ангидрид, карбамид, графен ва графен оксиди ҳамда ба'зи 3d металл тuzlari asosida yarimo'tkazgich SiPc, FePc, CoPc, NiPc, LaPc, MnPc, PANI va GO markali pigmentlar olishning maqbul sharoitlari tanlangan;

sintez qilingan yangi CrPc, MnPc, NiPc, LaPc, FePc, CoPc markali pigmentlarning yorug'lik va quyosh nuri ostida individual ravishda 15 kun davomida kuchlanish (mV) va tok kuchi (mA) hosil qilish sig'imlari hisoblab chiqilgan;

Keithley (Model 4200-C) da hosil qilgan volt-amper tahlili asosida yarimo'tkazgich pigmentlarning tok kuchi va kuchlanish qiymatlari $LaPc < CrPc < MnPc < NiPc < FePc < CoPc$ qatorida ortib borishi aniqlangan;

zichlik funksional nazariyasi (DFT) asosida sintez qilingan pigmentlarning elektron transport, optik faollik va kimyoviy reaktivlik xususiyatlari nuqtai nazardan p-tipga kiruvchi yarimo'tkazgich materiallar ekanligi isbotlangan;

olingan yarimo'tkazgich pigmentlar asosida ishlaydigan tandem quyosh elementlari tomonidan olingan kuchlanish va tok kuchi qiymatlari, bo'yoq-sezgir quyosh elementlari tomonidan olingan kuchlanish va tok kuchi qiymatlariga nisbatan 20% ga yaxshilanganligi baholangan;

yarimo'tkazgich pigmentlar asosida olingan tandem quyosh elementlari tomonidan o'lchangan solishtirma elektr qarshilik ($\Omega \cdot cm$) qiymatlari maxsus shaffof shisha taglik substrat $In_2O_3 \cdot SnO_2 < Sitall < oddiy shisha taglik < Kremniy (Si)$ qatorida oshib borishi isbotlangan;

olib borilgan kvant-kimyoviy tahlillar asosida metall ftalosianin komplekslarining yarimo'tkazuvchanlik xossalari $LaPc < CrPc < MnPc < NiPc < FePc < CoPc$ qatorida yuqoriligi aniqlangan;

ftalosianin, anilin va grafen oksidi asosida termik barqaror yuqori assimiliyatsiya koeffitsientiga ega yarimo'tkazgich organik pigment materiallar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

anilin, ftal angidrid, karbamid, grafen va grafen oksidi hamda ba'zi 3d –metall tuzlari asosida yarimo'tkazgich pigment materiallar sintez qilingan;

3d-metall tuzlari asosida yuqori intensiv ftalosianin pigmentlar olishning maqbul sharoitlari, olingan pigmentlarning tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari zamonaviy analiz usullari yordamida aniqlangan;

pigmentlarning kimyoviy barqarorligi va ochiq osmon sharoitlarda qayta ishlatish hamda tandem asosidagi quyosh elementlariga qo'llash imkoniyatlari aniqlangan;

anilin, grafen oksidi hamda ftalosianin pigmentlari asosida yangi fotosensibilizator xossaga ega kuchlanish va tok kuchi hosil qiluvchi tandem quyosh elementlarini olishning prinsipial texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

anilin, grafen oksidi, ftal angidrid, 3d-metall tuzlari, karbamid va katalizator asosida yuqori intensiv yarimo'tkazgich organik pigment materiallar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan hamda texnik-iqtisodiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi, xulosalar va tavsiyalarning asosiligi, olingan birikmalarni identifikatsiyalash yuqori darajada zamonaviy kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizik-mexanik usullar (IQ-spektroskopiyasi, skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), differensial termik tahlil, element tahlili, Raman spektroskopiya, UB-spektrofotometr, RIGOL DM3058 va Keithley volt-ampmetr) bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sintez qilingan bu turdagi moddalar yangi avlod quyosh elementlari uchun istiqbolli fotoanod materiallar sifatida yangi imkoniyatlarni beradi va fotokatalizatorlik rolini yanada oshirish orqali quyosh elementlarining energiya konvertatsiya samaradorligini yuqori darajaga ko'tarish orqali yuqori natijalarni qayd etish hamda hosil bo'ladigan tok kuchi va kuchlanishlarni yig'ib olish uchun tandem quyosh elementi tadqiq etilganligi hamda organik pigment materiallar ishlab chiqarish texnologiyasining ilmiy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan PANI, SiPc, LaPc, NiPc, FePc, CrPc, CoPc, MnPc va GO markali bo'yoq moddalar yarimo'tkazuvchanlik va optik xossalarni namoyon qilishi natijasida quyosh nurlariga sezgir bo'yoq moddalar bilan ishlaydigan tandem quyosh elementlarida foydalanishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tandem quyosh elementlari uchun organik yarimo'tkazgich pigment materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

MePc, PANI va GO markali pigmentlar suv tizimlarida samarali korroziya ingibitori sifatida Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining "2027–2030-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan (Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2026 yil 8

maydagi OP25/ED-2601-son ma'lumotnomasi). Natijada, MePc, PANI va GO markali antikorrozion bo'yoq pigment qoplamalari metall namunalarini himoyalash darajasini oshirish va metall korroziya tezligini 97 % gacha kamaytirish imkonini beradi;

grafen oksidi, anilin va 3d-metallar saqlagan organik yarimo'tkazgich ftalosianin bo'yoq pigmentlar olish texnologiyasi Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining "2027–2030-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan (Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2026-yil 8-maydagi OP25/ED-2601-son ma'lumotnomasi). Natijada, grafen oksidi, anilin va tarkibida ba'zi 3d-metallar saqlagan organik yarimo'tkazgich ftalosianin bo'yoq pigmentlar olish texnologiyasi Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasidagi metall konstruksiyalar va suv aylanma sistemalarini karroziyadan himoya qilish uchun samarali pigmentlar olish imkonini beradi;

3d-metall tuzlari saqlagan ftalosianin, anilin va grafen oksidi asosida sintez qilingan organik pigmentlar "Nasr Snack" MCHJ xorijiy korxonasida polimer salofan paketlarga rang berishda lok-bo'yoq sifatida amaliyotga joriy qilingan. (Nasr Snack MCHJ O'zbekiston–Tojikiston xorijiy korxonasining 2026-yil 5-maydagi 73-son ma'lumotnomasi). Natijada 3d-metall tuzlari saqlagan ftalosianin pigmentlari, anilin va grafen oksidi asosida PF-115 markali emalning yorqin rangli namunalarini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 24 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 20 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 46 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 22 ta ilmiy maqola, jumladan, 18 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 195 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoni yechishdagi ahamiyati va zaruriyati asoslangan, ilmiy-tadqiqot ishining maqsad va vazifalari, tadqiqot obyektlari va predmeti berilgan hamda tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotda qo'llanilishi bo'yicha tavsiyalar, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **"Yarimo'tkazgich pigment materiallar yaratish sohasidagi tadqiqotlarning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari"** deb nomlangan **birinchi bobida** asosan ftalosianin asosidagi metalokompleks

birikmalarning tuzilishi, sintezi va xossalari, ftalosianin asosidagi kompleks organik yarimo‘tkazgich materiallarning afzalliklari va amaliy qo‘llanilish sohalari hamda adabiyotlar qiyosiy tahlil qilingan. Yarimo‘tkazgich organik polimer materiallarning yangi turlarini yaratish borasida dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqot usullariga haqida ma’lumotlar berilgan. Tabiiy bo‘yoqlar asosida quyosh elementlarini olish va ularning fotovoltik xossalari hamda ftalosianin pigmentlarini modifikatsiyalab rang intensivligini o‘zgartirish usullariga doir adabiyotlar sharhi keltirilgan. Shuningdek, tandem asosidagi quyosh elementlari uchun yarimo‘tkazgich pigmentlarni qo‘llashning yangi jihatlari hamda grafen va grafen oksidi asosidagi yarimo‘tkazgich materiallarning yarimo‘tkazgich xossalari va adabiyotlardagi ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish asosida dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari aniqlangan.


Dissertatsiyaning **“Tandem quyosh elementlarini olish uchun ishlatiladigan yarimo‘tkazgich pigment moddalar sintezi va tadqiqoti”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** tadqiqot obyektlari va analizning zamonaviy usullari ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqot usullari hamda anilin, grafen oksidi va ba’zi 3d-metall tuzlari karbamid, ftal anhidrid, tegishli katalizator asosida yarimo‘tkazgich organometall kompleks pigmentlar sintezi yoritilgan. Sovuq muhitda reaksiyalarni olib borish uchun sovutish aralashmasini tayyorlash, titan dioksidi, rux oksidi va sirt faol modda hamda etil spirti asosida fotokatalizator pasta tayyorlash jarayoni hamda elektrolit eritmalar tarkibi va ularning hosil qilish usullari keltirilgan.

Kremniy ftalosianin pigmentining sintezi

Kremniy ftalosianin pigment materiallarini sintez qilish asosida yuqori darajada barqaror fotoaktiv yarimo‘tkazgich birikmalarini ishlab chiqish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Kremniy IV-xlorid, karbamid va ftal anhidrid hamda katalizator asosida tarkibida kremniy saqlovchi ftalosianin bo‘yoq moddasini sintez qilish uchun 6,8 gr (0,04 mol) kremniy IV-xlorid, 23,68 gr (0,16 mol) ftal anhidrid, 19,2 gr (0,32 mol) karbamid va umumiy massaga nisbatan 0.01% miqdorda katalizator sifatida natriy borgidrid qo‘shib yaxshilab aralashtirildi. Quyida kremniy ftalosianin yarimo‘tkazgich pigmentining hosil bo‘lish reaksiya tenglamasi tasvirlangan.



Kremniy ftalosianin pigmentining hosil bo‘lish reaksiya tenglamasi




1-rasm. Kremniy ftalosianin pigmentining hosil bo‘lish unumiga vaqtning (soatda) ta’siri


Jarayonning oxirida, qo'shimcha tozalash, eritish va neytrallash jarayonidan so'ng ko'k, och yashil kristallar paydo bo'lib stakan tagiga cho'ka boshlaydi. Olingan cho'kmani Natriy bikarbanat eritmasi bilan neytrallab so'ngra Byuxner voronkasida filtrlab, bir necha marotaba distillangan suv bilan yuvib olinadi.

Pigment sinteziga harorat, boshlang'ich reagentlar mol nisbati va vaqt kabi parametrlar ta'sirini o'rganish

Tadqiqot ishlari davomida harorat ta'sirining kremniy ftalosianin (SiPc) pigmenti hosil bo'lish unumiga ta'siri o'rganildi (2-rasm). Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, sintez harorati 190°C dan 310°C gacha oshirilganda mahsulot hosil bo'lish unumi haroratga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq holda muntazam ravishda, deyarli chiziqli tendensiya asosida ortib bordi. Ushbu qator tajribalar asosida 310°C sintez uchun optimal harorat sifatida qabul qilindi, chunki aynan mazkur sharoitda maksimal unumdorlik qayd etildi. Haroratning bundan yuqori qiymatlarida pigmentning unumining pasayishi va intensivligining ortishiga olib keladi, 310 °C yakuniy optimal harorat sifatida belgilandi.



2-rasm. Kremniy ftalosianin pigmentining hosil bo'lish unumiga haroratning ta'siri




3-rasm. Kremniy ftalosianin pigmentining hosil bo'lish unumiga dastlabki moddalar mol nisbatining ta'siri

Boshlang'ich reagentlar mol nisbatining stexiometrik o'zgarishi kremniy ftalosianin sintezi unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, reaksiya muvozanatni mahsulot hosil bo'lishi tomonga siljitadi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, mol nisbatning 1:3;6 dan 1:4;8 gacha oshirilishi mahsulot chiqishini 45 % dan 90 % gacha bosqichma-bosqich (gradientli) ravishda oshirdi. Ushbu qonuniyat 1:4;8 nisbatni jarayonning kinetik jihatdan eng maqbul (optimal) nuqtasi sifatida tavsiflaydi, chunki aynan mazkur parametrdagi reagentlarning konversiya darajasi hamda molekulalararo samarali to'qnashuvlar ehtimolligi maksimallashadi va natijada yuqori texnologik samaradorlikka erishiladi (3-rasm).


Kobalt ftalosianin pigmentining sintezi

Kobalt ftalosianin bo'yoq moddasini sintez qilishda bizga kobalt ikki sulfat, karbamid, ftal angidrid va katalizatorlar kerak bo'ldi. 400 ml hajmli termobarqaror stakanga 2,81 gr (0,01 mol) kobalt ikki sulfat, 5,92 gr (0,04 mol) ftal angidrid, 4,8 gr (0,08 mol) karbamid va umumiy massaga nisbatan 0.1 % miqdorda

katalizator sifatida ammoniy geptamolibdat qo'shib yaxshilab aralashtirildi. Oldindan yoqib tayyorlab qo'yilgan qizdirish pechidagi harorat 200 °C ga etganda stakandagi reaksiya aralashmani pechga 2,5 soat davomida qo'yildi. Natijada, rangsiz reaksiya aralashma harorat ta'sirida reaksiyaga kirishib qo'ng'ir rangli kukunsimon massaga aylanib qoladi. Uni pechdan olib, xona haroratida sovutib ustiga 96 % li kons sulfat kislota eritmasida 25 minut davomida aralashtirib turgan holda eritildi. Keyin, ushbu kons sulfat kislota eritilgan reaksiya aralashmaning ustiga stakaning bor hajmigacha to'ldirib qaynoq suv quyib yana aralashtirildi. Natijada, reaksiyaga to'liq kirishmay qolgan boshlang'ich mahsulotlar erib eritmaga o'tib reaksiya muhitidan chiqib ketadi.




Kobalt ftalosianin pigmentining hosil bo'lish reaksiya mexanizmi




4-rasm. Kobalt ftalosianin pigmentining hosil bo'lish unumiga haroratning ta'siri

Tadqiqot ishlari davomida harorat omilining kobalt ftalosianin (CoPc) pigmenti sintezi unumiga ta'siri o'rganildi (4-rasm). Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, sintez harorati 150°C dan 300°C gacha oshirilganda mahsulot hosil bo'lish unumi haroratga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq holda muntazam ravishda, deyarli chiziqli tendensiya asosida ortib bordi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, haroratning har 50°C ga oshishi mahsulot hosil bo'lish unumini o'rtacha 6-7 % ga yaxshilaydi. Sintez jarayoni uchun 250°C haroratni optimal harorat deb belgilandi, chunki aynan shu nuqtada maksimal unumdorlikka erishildi.



5-rasm. Kobalt ftalosianin pigmentining hosil bo'lish unumiga dastlabki moddalar mol nisbatining ta'siri




6-rasm. Kobalt ftalosianin pigmentining hosil bo'lish unumiga vaqtning (soatda) ta'siri

Tajribalar davomida kobalt ftalosianin hosil bo'lish unumiga boshlang'ich moddalar mol nisbatining ta'siri o'rganildi (5-rasm). Boshlang'ich reagentlar mol nisbatining stexiometrik o'zgarishi kobalt ftalosianin sintezi unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, reaksiya muvozanatni mahsulot hosil bo'lishi tomonga siljitadi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, mol nisbatning 1:3;6 dan 1:4;8 gacha oshirilishi mos ravishda mahsulot chiqishini 48 % dan 82 % gacha bosqichma-bosqich oshirdi. Ushbu qonuniyat 1:4;8 nisbatni jarayonning kinetik jihatdan eng maqbul (optimal) nuqtasi sifatida tavsiflaydi, chunki aynan mazkur parametrdagi reagentlar molekullarining o'zaro to'qnashuvlari soni ortadi va natijada yuqori texnologik samaradorlikka erishiladi. 6-rasmdagi grafik ma'lumotlariga ko'ra, qizdirish davomiyligining 1 soatdan 3 soatgacha uzayishi mahsulot chiqishini 50 % dan 82 % gacha oshirishni ta'minlaydi.

Lantan ftalosianin pigmentining sintezi

Hozirgi kunda ftalosianin asosidagi metalokompleks pigmentlarning juda ko'plab vakillari sintez qilinmoqda. Jumladan, tarkibida 3d-metallari hamda ishqoriy yer metallari saqlagan ftalosianin pigment sintezlari amalga oshirilgan. Ammo lantanoidlar sinfining metallari bilan ftalosianin pigmentlari sintezi ko'p amalga oshirilmagan. Lantanoidlar sinfining birinchi vakili hisoblangan lantan tuzi ishtirokida ftalosianin pigmenti sintezi amalga oshirildi. Lantan III xlorid, karbamid, ftal angidrid va katalizator sifatida natriy borhidrid ishtirokida markaziy atom sifatida lantan saqlovchi ftalosianin bo'yoq modda sintez qilindi hamda sintez qilish jarayonida harorat, boshlang'ich reagentlar mol nisbati va sarflangan vaqt kabi turli parametrlar ta'siri o'rganildi. Reaksiyada boshlang'ich reagentlar miqdori tegishli nisbat qilib olindi. Qizdirish pechidagi harorat kerakli darajaga yetganda stakandagi reaksiya aralashma pechga solindi. Jarayonning oxirida, qo'shimcha tozalash, eritish va neytrallashtirish jarayonidan so'ng to'q yashil rangli kristallar paydo bo'lib, stakan tagiga cho'ka boshladi. Olingan cho'kma Byuxner voronkasida filtrlab, bir necha marotaba distillangan suv va ammiak eritmasi bilan yuvib olinadi. Yuvib olingan mahsulotni quritish pechida 60 °C haroratda 24 soat davomida qo'yib quritildi. Quyida lantan ftalosianin yarimo'tkazgich pigmentining hosil bo'lish reaksiya tenglamasi keltirildi.




Lantan ftalosianin pigmentining hosil bo'lish reaksiya tenglamasi

Lantan ionining katta ion radiusi va yuqori koordinatsiya qobiliyati tufayli ftalosianin makrosikllari bilan termodinamik jihatdan barqaror ikki qatlamli komplekslarni hosil qiladi. Ushbu La^{3+} ioni energetik jihatdan juda qulay koordinatsiya muhitni yaratadi va natijada hosil bo'lgan sendvich tuzilishi pi-pi o'zaro ta'sirlar va samarali zaryad uzatish tufayli fotovoltik va yarimo'tkazgich xususiyatlarni ta'minlaydi. Tahlil va tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'plab lantanoidlar uchun ikki qatlamli kompleksning erkin energiyasi oddiy monoftalosianinnikidan pastroq. Shuning uchun reaksiya muvozanati ko'pincha sendvich kompleksining hosil bo'lishiga qarab siljiydi. Sendvich tuzilishning bu yo'nalishdagi fotovoltik xususiyatlarga ta'siri DFT hisob-kitoblari, UB-spektroskopiya, IQ spektroskopiya, Raman spektroskopiya, rentgen fazaviy va volt-amper xususiyatlari bilan tasdiqlanadi.

Marganes ftalosianin pigmentining sintezi

Marganes ftalosianin bo'yoq moddasini sintez qilishda marganes ikki xlorid, karbamid, ftal anhidrid va katalizatorlar kerak bo'ldi. 400 ml hajmli termobarqaror stakanga 1,98 gr (0,01 mol) marganes xlorid, 5,92 gr (0,04 mol) ftal anhidrid, 4,8 gr (0,08 mol) karbamid va umumiy massaga nisbatan 0.1% miqdorda katalizator qo'shib aralashtirildi. Oldindan yoqib tayyorlab qo'yilgan qizdirish pechidagi harorat 250°C ga yetganda stakandagi reaksiya aralashmani pechga 2,5 soat davomida qo'yildi. Natijada, rangsiz reaksiya aralashma harorat ta'sirida reaksiyaga kirishib qo'ng'ir rangli kukunsimon massaga aylanib qoladi. Uni pechdan olib, xona haroratida sovutib ustiga 96% li kons sulfat kislota eritmasida 30 minut davomida aralashtirib turgan holda eritildi. Jarayonning oxirida, qo'shimcha tozalash, eritish va neytrallash jarayonidan so'ng ko'k-yashil kristallar paydo bo'lib stakan tagiga cho'ka boshlaydi. Olingan cho'kmani qayta-qayta suv bilan yuvib cho'ktiriladi va ammiak eritmasi bilan neytrallab so'ngra Byuxner voronkasida filtrlab, bir necha marotaba distillangan suv bilan yuvib olinadi. Yuvib olingan mahsulotni quritish pechida 60°C haroratda 12 soat qo'yib quritildi.



Marganes ftalosianin pigmentining hosil bo'lish reaksiya tenglamasi


Quritiba olingan ko'k rangli pigment dimetilformamidda, dimetilsulfoksid hamda N-metil pirrolidonda yaxshi eriydi. Olingan mahsulotning unumi 80 % ni tashkil qildi. Sintez qilingan marganes ftalosianin bo'yoq moddasini adabiyotlardagi ma'lumotlarga solishtirib va fizik-kimyoviy analizlar qilib aniqladik. Sintez qilingan yangi fotokonduktiv bo'yoq modda o'zining ajoyib optik va fotokimyoviy xossalari bilan ajralib turadi. Shuningdek, uning termik jihatdan barqarorligi, quyosh nurlariga sezgirliги hamda eritmada turg'un ekanligi uning qo'llanilish sohalarini kengaytiradi. Hozirgi kunda ushbu (MnPc) marganes ftalosianin bo'yoq moddasining siztezi uni muqobil energiya manbalaridan biri bo'lgan to'rtinchi avlod quyosh elementlari hisoblangan quyosh nurlariga sezgir bo'yoqlar asosida ishlaydigan tandem asosidagi quyosh elementlariga sezgir bo'yoq modda sifatida ishlatilmoqda.

Dissertatsiyaning **“Tandem quyosh elementlari uchun ishlatiladigan organik yarimo'tkazgich pigmentlarning xossalari va ularning tadqiqoti”** deb nomlangan **uchinchi bobida** metall ftalosianinlar asosidagi p va n-tipli yarimo'tkazgich pigmentlarning p va n-tiplarini aniqlash, 3d-metall tutgan ftalosianin pigmentlarining optik va fotoelektrik xossalari, sintez qilingan fotosensibilizator xossaga ega pigmentlarning yarimo'tkazuvchanlik xususiyatlari, anilin, grafen oksidi hamda ftalosianin asosida olingan yarimo'tkazgich pigmentlarning infraqizil, Raman spektroskopik, element fluorescent, UB-spektroskopik, SEM, termik, rentgen fazaviy analiz tahlillari hamda volt-amper xususiyatlari o'rganilgan. Ftalosianin pigmentlari asosida tayyorlangan tandem quyosh elementlari tomonidan hosil qilingan kuchlanish va tok kuchi qiymatlari aniqlandi.


Olingan ftalosianin pigmentlarining IQ analiz tahlili

Tarkibida markaziy atom sifatida 3d-metall saqlagan ftalosianin komplekslarining olingan infraqizil (IQ-Fure) yutilish spektrlari $400-4000\text{ sm}^{-1}$ to'lqin uzunligi oralig'ida tahlil qilindi. Organik yarimo'tkazgichlar va murakkab makrosiklik birikmalarda yutilish chastotalarining siljishi hamda intensivligi bevosita molekulyar simmetriyaga, elektronlarning delokalizatsiyalanish darajasiga va markaziy metall ionining tabiatiga bog'liq bo'ladi.

Olingan marganes ftalosianin bo'yoq moddasining IQ-spektral tasviri 7-rasmda ko'rsatilgan. Benzol halqasining aromatik guruhining mavjudligi 3188 va $1653-1558\text{ sm}^{-1}$ dagi yutilish chiziqlari orqali aniqlanadi. $-C=N$ guruhlarini almashtirish tabiati 947 sm^{-1} dan past mintaqada kuchli yutilish bilan belgilanadi. Benzol halqasi 1417-sm^{-1} yutilish zonalarida aniqlanadi. 1635 sm^{-1} , ba'zan esa $2000-1604\text{ sm}^{-1}$ yutilish chiziqlari bilan sodir bo'ladi. $1288-947\text{ sm}^{-1}$ mintaqadagi chiziqlar ikkinchi darajali ahamiyatga ega. $=CH-$ guruhlarini uchun tekislikdan tashqari deformatsiya tebranishlarining kuchli chiziqlari ko'rinadi. $781-711\text{ sm}^{-1}$ mintaqadagi chiziqlar ortobenzol halqasini va $1683-1635\text{ sm}^{-1}$ dan 818 sm^{-1} gacha bo'lgan hududdagi yutilish zonalarida $-C=N$ guruhlariga xos bo'lgan yutilish cho'qqisi kuzatiladi. Shunday qilib, ftal angidridni karbamid va $MnCl_2$ bilan kondensatsiya qilish orqali yuqori fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega bo'lgan ftalosianin bo'yog'i sintez qilindi va xossalari o'rganildi.



7-rasm. Marganes ftalosianin pigmentining IQ-spektr tasviri





8-rasm. Kobalt ftalosianin pigmentining IQ-spektr tasviri

Sintez qilingan kobalt ftalosianin kompleks birikmasining infraqizil spektroskopik tasviri 8-rasmda keltirilgan. Olingan ushbu organik pigmentlarning funktsional guruhlari va taxminiy strukturaviy formulasini aniqlash uchun infraqizil spektroskopiya qoʻllanildi. Natijalar adabiyotda keltirilgan maʼlumotlar bilan taqqoslandi va tahlil qilindi. Kobalt ftalosianin kompleksining 400 sm^{-1} yaqin infraqizil toʻlqin uzunligi mintaqasida va 4000 sm^{-1} uzoq infraqizil toʻlqin uzunligi mintaqasida yutilish spektrlari koʻrsatilgan. Organik yarimoʻtkazgichlarda yutilish chastotalarining qiymati ishlatiladigan substrat materialining xususiyatlariga bogʻliq. $3059,10\text{ sm}^{-1}$ mintaqasidagi yutilish chiziqlari C-H bogʻlanishiga tegishli ekanligi aniqlandi. C=C bogʻlanishiga bogʻliq tebranishlar $1604,77\text{ sm}^{-1}$ yutilish chiziqlariga tegishli ekanligi kuzatildi. $1465,9\text{--}1419,61\text{ sm}^{-1}$ mintaqasidagi aromatik halqaning yutilish chiziqlari izoindolga mos kelishi aniqlandi. 1379 sm^{-1} dagi yutilish choʻqqilari pirrol halqasi bilan bogʻliqligi kuzatildi, benzol halqalarining yutilish polosalari esa $948,98\text{ sm}^{-1}$ da, ftalosianin halqalarining yutilish polosalari esa $752,24\text{ sm}^{-1}$ da kuzatildi.

Temir ftalosianin pigmentining SEM analiz tahlili


Ftalosianin asosidagi yarimoʻtkazgich pigmentlar morfologiyasi va tuzilishi skanerlash elektron mikroskopi yordamida tahlil qilindi. Temir ftalosianin pigmenti qatlamlaridagi gʻovaklar va katta sirt yuzasi sabab yarimoʻtkazgich TiO_2 bilan ishlov berilgan kompozitning koʻrinadigan yorugʻlik nurga sezgir boʻlgan boʻyoq moddalarni shimuvchanligini oshiradi. Natijada, ularning yuqori fotosensibilizatorlik xususiyatlari hisobiga tandem quyosh elementlarida foydalanishga imkon beradi. Yarimoʻtkazgichli ftalosianin pigmentlar yuqori sezgirliги va ishonchliligi, nisbatan keng konsentratsiya diapazonida kimyoviy komponentlarni aniqlash qobiliyati va tezkor javobi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlari jihatidan metall ftalosianin pigmentlar yuzasidagi gaz adsorbsiyasi tufayli yarimoʻtkazgich materiallarining elektr qarshiligidagi oʻzgarish natijasida qarab gaz sensorlarda foydalaniladi. Ftalosianin asosidagi yarimoʻtkazgichli pigmentlarning SEM analiz tahlillari natijasiga qarab ularning qaysi gazlarga nisbatan sensorlik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.



9-rasm. Olingan temir ftalosianin FePc pigmentining SEM tasviri


Kobalt ftalosianin pigmentining Raman spektroskopik tahlili

Tarkibida kobalt saqlagan ftalosianin pigmentining Raman spektroskopiya tahlili Yaponiyaning HORIBA Scientific firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan jihozda amalga oshirildi.



10-rasm. Kobalt ftalosianin pigmentining Raman spektroskopik tasviri

Analyte	Result	[3-sigma]	Proc.-Calc.	Line	Int. (cps/ua)
Co	50.122 %	[0.263]	Quan-FP	CoKa	1879.4048
Mo	49.346 %	[0.200]	Quan-FP	MoKa	2881.5416
Ca	0.328 %	[0.035]	Quan-FP	CaKa	0.4541
Nb	0.205 %	[0.024]	Quan-FP	NbKa	13.7446



11-rasm. Kobalt ftalosianin pigmentining element fluorescent analizi

Kobalt ftalosianin pigmentining Raman spektroskopik tasviri 10-rasmda ko'rsatilgan. Pigmentning tarkibini o'rganish maqsadida o'tkazilgan Raman spektroskopiya tahlilida quyidagi xulosalar olindi. Benzol halqasidagi aromatik guruhining mavjudligi $3140, 62 \text{ cm}^{-1}$ dagi yutilish chizig'i orqali aniqlanadi. $3237,60 \text{ cm}^{-1}$ valent tebranishli sohalarida N-H bog'larga tegishli, $2559,81 \text{ cm}^{-1}$ sohada O-H (H bog' hosil qilgan) bog'lariga taalluqli valent, $1764,83 \text{ cm}^{-1}$ spektrlarda C=C bog'larga tegishli, valent va intensiv tebranish spektrlari ko'ringan. $1864,96 \text{ cm}^{-1}$ C=O bog'lariga taalluqli, $1584,42 \text{ cm}^{-1}$ sohasida differensial tebranishlarga ega N-H bog'lari spektrlari mavjud. $1400,09 \text{ cm}^{-1}$ sohadagi spektrlar C-H bog'lariga, shuningdek, $886,23 \text{ cm}^{-1}$ sohada Me-N bog'lariga tegishli differensial bog'lar spektrlari ko'ringan.

Kobalt ftalosianin pigmentining element fluorescent analizi tasviri 11-rasmda ko'rsatilgan. Moddaning atomar tarkibi har qanday ishlab chiqarishda ishlatilagan xomashyoni, ishlab chiqarishni hamda mahsulotlarni nazorat qilish uchun ma'lum bo'lishi kerak. Shuni hisobga olib, organik erituvchida eritib kichik konsentratsiyali eritmalarini olib element analizi o'tkazildi. Kichik konsentratsiyali


eritmalarini tayyorlab element analizi qilinganda o'rganilgan yutulish cho'qqilarida kobalt ftalosianin pigmentidan tashqari tajriba xatoligi darajasida molebdan va to'liq tozalanmagan reaksiyada katalizator sifatida ishlatilgan modda va neytrallashda ishlatilgan moddadan qolgan kalsiy qoldiqlari borligini ko'rsatdi.

Ftalosianin asosidagi metalokompleks pigmentlarini sintez qilishda izoindol ligand molekulasiining kvant-kimyoviy xususiyatlari

Ligandning kompleks hosil qilishdagi elektron xossalari aniqlash maqsadida uning kvant-kimyoviy parametrlariga asoslangan DFT hisoblashlari bajarildi. Hisoblashlar UB3LYP funksionali va 6-311G baza to'plamidan foydalangan holda Gaussian 09 dasturida olib borildi. Ligand molekulasiining HOMO va LUMO energiyalari mos ravishda $-5,76$ eV va $-2,29$ eV ni tashkil etdi. Ular orasidagi energetik farq:

$$\Delta E = |E_{\text{LUMO}} - E_{\text{HOMO}}| = 3,47 \text{ eV}$$


Bu qiymat molekulaning reaktivlik darajasi mo'tadil ekanligini bildiradi, ya'ni u elektron donorlikka moyil bo'lgan, ammo haddan tashqari reaktiv bo'lmagan tizimdir. HOMO orbitalining fazoviy taqsimoti molekula tarkibidagi konyugatsiyalashgan aromatik sistemalar va ularga tutashgan π -elektronlar bilan boyitilgan azot atomlarida lokalizatsiyalangan. Bu esa aynan ushbu atomlar orqali koordinatsion bog'lanish yuzaga kelishini taxmin qilishga asos beradi.



12-rasm. Izoindol ligandining ESP va Mullikin zaryad taqsimoti

LUMO orbitali molekulaning boshqa aromatik segmentlariga yo'naltirilgan bo'lib, u orqali reaktivlik ham ifodalanadi. Shunday qilib, HOMO komponentasi ligandning asosiy donorlik markazlarini aniqlaydi. ESP xaritasining fazoviy-strukturaviy tahlili ligand molekulasiida yuqori elektron zichlikka ega lokal donor markazlarining mavjudligini aniq tasdiqlaydi. Bu holat ligandning metall ionlar bilan yuqori selektivlik va yo'naltirilganlik asosida koordinatsiyalashish qobiliyatiga ega ekanligini ilmiy asoslaydi (12-rasm). Donor markazlarning elektrostatik sirt bo'yicha lokalizatsiyasi esa, ushbu ligandni geometrik jihatdan tartiblangan va elektronik jihatdan faol koordinatsion tizim sifatida tavsiflash imkonini beradi. ESP xaritasida kuzatilgan elektron zichlik zonalari, o'z navbatida, HOMO–LUMO orbitalarining fazoviy joylashuvi hamda Mulliken zaryad taqsimoti bilan to'liq muvofiqlikda ekanligi qayd etildi. Bunday moslik ligand molekulasiining kompleks hosil qilishdagi elektronik strukturasi, donorlik

markazlarining xarakteri va ularning fazoviy faolligini yagona kvant-kimyoviy model asosida ishonchli tarzda talqin qilish imkonini beradi.




13-rasm. Izoindol ligandining HOMO-LUMO energiya darajalari

Kompleks birikmalarning yarimo‘tkazuvchanlik xossalari ularning elektron tuzilishiga, molekulyar orbitallarning energiya darajalariga, zaryad zichligining fazoda taqsimlanishiga, shuningdek, elektrostatik potensial maydonlarining xarakteristikalariga chambarchas bog‘liqdir. Ushbu parametrlar yarimo‘tkazuvchi sifatida ularning samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Ayniqsa, HOMO (Highest Occupied Molecular Orbital) va LUMO (Lowest Unoccupied Molecular Orbital) orasidagi energetik tafovut (ΔE) ushbu tizimlarning elektron o‘tishi va o‘zgaruvchan tashuvchanlik (conductivity) salohiyatini baholashda asosiy rol o‘ynaydi.


Kobalt ftalosianin pigmentining HOMO-LUMO energiya darajalari

Kobalt (Co(II)) ionini o‘z ichiga olgan kompleksda esa HOMO energiyasi – 3,25 eV, LUMO darajasi –2,90 eV bo‘lib, $\Delta E = 0,35$ eV ga teng 14-rasm. Bu esa ushbu kompleks elektronni HOMO dan LUMO ga ko‘chirish uchun ancha kam energiya talab etishini anglatadi. Kichik energetik tafovut molekulani yuqori darajadagi kimyoviy reaktivlik va oson eksitatsiyalanish xususiyatlari bilan ta’minlaydi. Bu esa uni zamonaviy elektronika, fotoelektrik sensorlar va katalitik tizimlarda foydalanish uchun istiqbolli yarimo‘tkazuvchi material sifatida ishlatish imkonini beradi hamda yuqori sezgirliги va ishonchliligi ko‘rsatadi.



14-rasm. Kobalt ftalosianin pigmentining HOMO-LUMO energiya darajalari tasviri

Kvant kimyoviy hisoblashlar asosida olingan orbital vizualizatsiyalar shuni ko'rsatadiki, har ikkala kompleksda HOMO orbitalar asosan aromatik halqalar va koordinatsiyalashgan azot atomlariga joylashgan bo'lib, π -elektron bulutiga boy struktura shakllangan. Bu esa elektron donor xossasini kuchaytiradi. LUMO esa ko'proq metall markaz atrofidagi ligand atomlari, ayniqsa kislorod va azot atomlari bilan chegaralangan hududlarda kontsentratsiyalashgan bo'lib, bu sohalar elektron akseptor xususiyatini namoyon etadi.



15-rasm. Kobalt ftalosianin pigmentining zaryad taqsimoti va struktura formulasi

Ftalosianin asosidagi komplekslarda erkin holatda elektronlar HOMO, ya'ni valent zonada joylashgan bo'ladi, quyosh yoki yurug'lik nuri ta'sirida elektronlar valent zonadan LUMO, ya'ni o'tkazuvchan zonaga harakatlanadi. Bu esa ayrim azot markazlarida kuchliroq elektron zichlikning ortishi kuzatilib, bu molekulaning elektron harakatchanligini va kimyoviy faolligini oshiradi. Aynan shuning uchun ham Co ftalosianin kompleksi kichik HOMO–LUMO tafovuti tufayli yuqori yarimo'tkazuvchanlik va optik sezuvchanlik xususiyatlariga olib keladi.

Harorat ta'sirida ftalosianin pigmentlarining elektr o'tkazuvchanligining o'zgarishi

Ftalosianin asosidagi metalokompleks materiallar shunchalik sezgir materiallarki, ularning elektr o'tkazuvchanligini o'lchashda muhit, ya'ni sharoit materialning o'zidan ham muhimroq o'rin tutadi. Ftalosianin asosidagi metalokompleks yarimo'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi doimiy (fizik konstanta) emas, balki muhitga qarab uning fizik-kimyoviy xossalari o'zgarib turadi. Maydon ta'sirining davomiyligiga, yuqori haroratlarda vakuumda qatlamning pasayish davomiyligiga va begona gaz molekulalarining mavjudligiga qarab, qatlamning o'tkazuvchanligi ko'proq yoki kamroq sezilarli o'zgarishlarga uchrashi mumkinligi sababli, ftalosianinlarning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi va fizik kattaliklari haqida gapirish mumkin emas. Shunga qaramay, biz tomonimizdan o'rganilgan ftalosianin pigmentlar qatlamlarining qarshilik qiymatlarini, shuningdek, vakuum sharoitida yangi (20 °C dan 180 °C gacha qizdirilgan) qatlamlar uchun ftalosianinlarning o'ziga xos solishtirma elektr o'tkazuvchanliklarining o'zgarishini keltiramiz.


Tasvirlangan 16-rasmdagi grafikda organik ftalosianin yarimo'tkazgich pigmentlarga xos bo'lgan ikki jarayon sodir bo'ladi. Birinchisi degazatsiya (gazsizlantirish) bu ftalosianin pigmenti sirtiga yoki ichiga yutilgan (adsorbsiyalangan) gaz molekulalarining chiqib ketishi hisobiga o'tkazuvchanlikning pasayishiga olib keladi.

1-jadval


Kremniy ftalosianin pigmentining solishtirma elektr o'tkazuvchanligining haroratga bog'liqligi

№	Harorat, °C	Vaqt, soat	Solishtirma elektr o'tkazuvchanlik, $\text{Om}^{-1}, \text{sm}^{-1}$
1	20 °C	1	$9,6 \cdot 10^{-7}$
2	40 °C	2	$8,9 \cdot 10^{-7}$
3	60 °C	3	$10,4 \cdot 10^{-8}$
4	80 °C	4	$10,2 \cdot 10^{-8}$
5	100 °C	5	$10,1 \cdot 10^{-8}$
6	120 °C	6	$11,6 \cdot 10^{-9}$
7	140 °C	7	$10,5 \cdot 10^{-9}$
8	160 °C	8	$12,5 \cdot 10^{-10}$
9	180 °C	9	$11,8 \cdot 10^{-10}$

16-rasmda kremniy ftalosianin qatlamidan o'tuvchi tok kuchining vakuumda 20 °C dan 180 °C harorat oralig'ida qizdirish vaqtida vakuumda solishtirma elektr o'tkazuvchanlik xossasi o'rganildi. Doimiy ravishda matritsaga, ya'ni kremniy ftalosianin pigmentiga harorat berish orqali, ya'ni past energiyali holatdan yuqori energiyali holatga o'tish uchun tashqi manbadan energiya olish jarayoni va doimiy qo'llaniladigan maydonga bog'liq holda o'zgarishi ko'rsatilgan.



16-rasm. Kremniy ftalosianin pigmentining solishtirma elektr o'tkazuvchanligining haroratga bog'liqligi




17-rasm. Kobalt ftalosianin pigmentining optik yutilish spektr tasviri


Grafikdan ko'rinib turibdiki, hatto 6 soatdan keyin ham havosiz muhitda pigment molekulasinining elektr qarshiligi barqarorlashmagan, ya'ni yakuniga yetmaganligini ko'rishimiz mumkin. Harorat va vaqt oshib borgan sari ftalosianin asosidagi yarimo'tkazgich pigmentning tok intensivligining pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

Tarkibida 3d-metall saqllovchi ftalosianin pigmentining optik yutilish xossalari

Metall ftalosianinlarning yutilish (absorbsiya) spektrlarida ikki asosiy va juda kuchli intensivlikka ega bo'lgan soha mavjud: Birinchisi 300–400 nm oralig'ida joylashgan Soret chizig'i (Soret bandi) bo'lib bu yuqori energiyali kuchli yutilish cho'qqisi hisoblanib ultrabinafsha (ko'k) sohada yutiladi. Ikkinchi 650–800 nm oralig'ida joylashgan Q chizig'i (Q-bandi) bo'lib past energiyali pigment rangini belgilovchi ko'rinadigan qizil-ko'k sohada yutiladi.



18-rasm. Lantan ftalosianin pigmentining optik yutilish spektri



19-rasm. Xrom ftalosianin pigmentining optik yutilish spektri

Yutilish spektridagi cho'qqilarning shakli va joylashuvi ftalosianin molekulasining markaziy va tashqi o'rinbosarlar tarkibiga, turli erituvchilarda eruvchanligiga, shuningdek, molekulyar tuzilmalarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Ammo ligandning π -orbitalari ham π -donor, ham π -akseptor bo'lishi mumkin. Pirrol azot atomlari orbitallari markaziy metall atomining koordinatsiyasini belgilaydi va ular bilan birgalikda π -orbitalar bog'langan elektron tizimini hosil qiladi. Bu grafik turli erituvchilar ta'sirida spektr cho'qqilarining siljishi va intensivligi farqlarini ko'rsatadi. 18-rasmda lantan ftalosianin pigmentining optik yutilish spektri, 19-rasmda esa xrom ftalosianin pigmentining optik yutilish spektr tasvirlari keltirildi. Bu spektr tasvirlari turli organik erituvchilar ta'sirida spektr cho'qqilarining siljishi va intensivligi farqlarini ko'rsatadi.

Ftalosianin pigmentlari asosida tayyorlangan tandem quyosh elementlari tomonidan hosil qilingan kuchlanish va tok kuchi qiymatlari

Quyidagi 20 va 21-rasmlarda kobalt ftalosianin bo'yoq moddasi asosida hosil qilingan kontaktida Keithley Model 4200-C raqamli multimetr yordamida 15 kun davomida quvvat chiqishini (mV) va (mA) larda o'lchash orqali olingan qiymatlar keltirildi. Metall ftalosianin asosidagi bo'yoq molekulalarining yorug'likni yutish xususiyatlarini sinovdan o'tkazish davomida kobalt ftalosianin moddasining 1 % li eritmasidan foydalanildi. Yarimo'tkazgich kobalt ftalosianin moddasini dimetilformamiddagi eritmasini maxsus shaffof shisha pastinka yordamida kontakt hosil qilib quvvat chiqishi o'rganildi va quyidagi natijalar olindi: 2-jadval.

Metall ftalosianin asosidagi bo'yoq molekulalarining yorug'likni yutish xususiyatlarini sinovdan o'tkazish davomida kobalt ftalosianin moddasining 1 % li


eritmasidan foydalanildi. Yarimo'tkazgich kobalt ftalosianin moddasini dimetilformamiddagi eritmasini maxsus shaffof shisha pastinka yordamida kontakt hosil qilib quvvat chiqishini, ya'ni kuchlanish va tok kuchi qiymatlarini o'lchashdan maqsad, bu biz tavsiya etayotgan yarimo'tkazgich pigmentlarning fotoelektrik va volt-ampere xususiyatlari turg'unligini o'rganish juda muhim hisoblanadi.

2-jadval


Kobalt ftalosianin asosidagi quyosh elementi tomonidan o'lchangan kuchlanish (mV), tok kuchi (mA), qarshilik (Om) $\bar{U}$ qiymatlari

№. Vaqt, kun	Kuchlanish, (mV)	Tok kuchi, (mA)	Solishtirma qarshilik, (om) $\bar{U}$
1	755	40,9	10,18
2	755	40,8	10,16
3	752	40,7	11,65
4	751	40,6	11,78
5	750	40,4	12,45
6	749	40,2	12,61
7	747	39,7	13,25
8	747	39,6	13,25
9	745	39,5	14,2
10	739	39,4	14,6
11	735	39,3	14,8
12	732	39,3	15,6
13	730	39,2	15,7
14	730	39,2	15,7
15	730	39,2	15,7

Bizning o'lchovlarimiz davomida kunlik ob-havo sharoitiga va kunning qismiga qarab quvvat chiqishi kuchlanish va tok kuchi qiymatlari o'zgarib turadi shuni hisobga olib kunning har xil qismida o'lchovlar olinib ularning o'rtacha qiymatlari keltirildi (20-21-rasmlar).



20-rasm. Kobalt ftalosianin pigmenti asosida hosil qilingan kontaktning quvvat chiqishi (mV)




21-rasm. Kobalt ftalosianin pigmenti asosida hosil qilingan kontaktning quvvat chiqishi (mA)

Yuqoridagi natijalardan kuchlanish va tok kuchining eng yuqori ko'rsatkich sifatida birinchi kun 755 (mV), 40,9 (mA) va eng past ko'rsatkich sifatida esa o'lchashning oxirgi kuni 730 (mV), 39,2 (mA) qiymatlar qayd etildi. Tandem

asosidagi quyosh elementlariga anataza strukturasi ega TiO_2 nanomateriali va yarimo'tkazgich sezgir bo'yoq sifatida kobalt ftalosianin pigmenti yordamida muvaffaqiyatli ishlab chiqildi va (755 mV va $40,9 \text{ mA sm}^{-2}$) eng yuqori samaradorlikka erishildi. Kuchlanish (mV) va amper (mA sm^{-2}) qiymatlarini aniqlash uchun sezgirlik 300 mVt/sm^2 yorug'lik manbai ostida 15 kun davomida o'lchandi. Natijada, olingan turli markadagi yarimo'tkazgich bo'yoq pigmentlar asosida hosil qilingan kontaktda quvvat chiqishini, ya'ni kuchlanish va tok kuchining eng yuqori, o'rtacha va quyi ko'rsatgich qiymatlari ko'rsatib berildi.

Dissertatsiyaning **“Tandem quyosh elementlari uchun ishlatiladigan organik yarimo'tkazgich materiallarning kvant-kimyoviy xususiyatlari”** deb nomlangan **to'rtinchi bobida** ftalosianin asosidagi metalokompleks pigmentlarini sintez qilishdagi izoindol ligand molekulasi va kvant-kimyoviy xususiyatlari, pigmentlarning geometriyasi va spin xususiyatlarini hisoblash usullari, shuningdek, 3d-metall tuzlari asosida olingan ftalosianin metalokompleks pigment molekulasi va kvant-kimyoviy xossalari muhokama qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tandem quyosh elementlari uchun ishlatiladigan organik yarimo'tkazgich materiallar olish texnologiyasi va uning texnik-iqtisodiy asoslari”** deb nomlangan **beshtinchi bobida** anilin, grafen oksidi hamda ftalosianin asosida yarimo'tkazgich metalokompleks pigmentlar olishning prinsipial texnologik sxemasi va xomashyo sarfi me'yorlari, shuningdek, organik yarimo'tkazgich pigmentlar ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash jarayonlari muhokama qilingan.



22-rasm. Kremniy ftalosianin pigmentini ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi: 1–Sintez reaktori; 2- Ftal anhidrid uchun sig'im; 3–Kremniy tuzlari uchun sig'im; 4–Karbamid uchun sig'im; 5-Gaz chiqish nayi; 6-ftalamid uchun sig'im; 7 –Nasos; 8 –suvli idish; 9–lenta; 10- Kislotalik va ishqorli ishlov berish reaktori; 11–Sulfat kislota uchun sig'im; 12-Natriy karbonat uchun sig'im;

13-qoldiq eritmadagi suvni texnik suvga aylantirish reaktori, 14- nasos; 15-Filtr; 16-Quritish pechi; 17-Maydalagich; 18-tayyor mahsulot.

Ftalosianin asosida yarimo'tkazgich metalokompleks pigmentlar olishning prinsipial texnologik sxemasi va xomashyo sarfi me'yorlari ishlab chiqildi. 22-rasm kremniy ftalosianin pigmentini ishlab chiqarishning texnologik sxemasi keltirilgan. Kremniy ftalosianin pigmentining texnologik sxemasi maqbul sharoitlardan kelib chiqqan holda ftalosianin pigmentlari sintezi uchun eng qulay jarayon hisoblanadi. Sintez jarayonida harorat bosqichma-bosqich 200 °C dan 300 °C gacha bo'lgan haroratga yetkaziladi va aralashtirish maxsus germetik aralashtirgich yordamida uzluksiz amalga oshiriladi.

Asosiy reaksiya yakunlangandan 2 soat o'tgandan so'ng qizdirish jarayoni to'xtatiladi va reaktor harorati 60 °C gacha sovitiladi. Shundan so'ng reaksiya aralashmaga konsentrlangan sulfat kislota qo'shiladi. Ftalosianinlar sintezida asosiy xom-ashyo sifatida ftal anhidrid, karbamid, 3d-metall tuzlari (Co^{2+} , Ni^{2+} , Mn^{2+} , Fe^{2+} , Cr^{3+} , Si^{4+}) hamda katalizator qo'llaniladi. Ftal anhidrid aromatik halqaga ega bo'lgani sababli makrohalqada hosil bo'ladigan funksional guruhlarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Metall ftalosianinlar kristall strukturaga ega, suvda juda kam eruvchan pigmentlar bo'lib, yuvish jarayonida buzilmaydi. Yuvish jarayoni pigment sifatining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, issiq suv, organik spirtlar yoki suyultirilgan kislotalar yordamida ion qoldiqlari, eriydigan organik aralashmalar va qayta ishlangan texnik suv ajratib olinadi. Sintez jarayoni bilan birgalikda asosiy iqtisodiy samaradorlik xarajatlari ishlab chiqilgan.

XULOSA

Tandem quyosh elementlari uchun yangi avlod organik yarimo'tkazgich pigmentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish mavzusida texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Markaziy atom sifatida kremniy, lantan va 3d-metall tutgan turli MePc, PANI, GO markali yarimo'tkazgich ftalosianin bo'yoq pigmentlar sintez qilindi hamda sintez jarayonining maqbul sharoitlari taklif etildi.

2. Sintez qilingan turli markadagi yarimo'tkazgich pigmentlarning kimyoviy barqarorligi H_2SO_4 , HCl kabi kuchli mineral kislotalarning 96 % li konsentrlangan eritmalarida, shuningdek, kuchli oksidlovchi H_2O_2 va ammiakning 10 % li eritmaları kabi turli agressiv muhitlarda sinovdan o'tkazildi hamda ushbu pigmentlarning yuqori intensivligi organik erituvchilarning 0.1 %, 0.5 %, 1 % li eritmaları tashkil etishi ko'rsatildi. Olingan yarimo'tkazgich pigmentlardan SiPc va MnPc ning kimyoviy barqarorligi qolgan pigmentlarga nisbatan ancha yuqori ekanligi ko'rsatib berildi.

3. Differensial-termik tahlil natijalari asosida olingan pigmentlarning termik barqarorligi $\text{PANI} < \text{LaPc} < \text{NiPc} < \text{CoPc} < \text{MnPc} < \text{FePc} < \text{SiPc} < \text{GO}$ qatorida ortib borishi aniqlandi. Skanerlovchi elektron mikroskop energiya dispersion

analiz tahlilida 3d-metall tuzlari, anilin va ftal angidrid, karbamid, grafen oksidi va tegishli katalizator olingan pigmentlarning mikrogʻovakli tuzilishi koʻrsatib berildi.

4. Sintez qilingan yarimoʻtkazgich va fotosensibilizator PANI, MePc, GO, LaPc markali pigmentlarning 20 °C dan 180 °C gacha haroratlar oraligʻida vakuum sharoitda individual ravishda harorat va vaqtga nisbatan solishtirma elektr oʻtkazuvchanligi aniqlandi. Bunda yarimoʻtkazgich kremniy ftalosianin kompleks pigmenti $11,8 \cdot 10^{-10}$ oʻziga xos fotokimyoviy xossalarni namoyon qildi.

5. Sintez qilingan grafen oksidi, anilin va tarkibida baʼzi 3d-metallar saqlagan ftalosianin boʻyoq pigmentlar maxsus shaffof shisha taglikka fotokatalizator sifatida qoplangan titan dioksidi va rux oksidiga chuqur shimdirish orqali koʻrinadigan va infraqizil nurlarga sezgir fotosensibilizatorlik xususiyati jihatidan tandem asosidagi quyosh elementlariga kiritilgan hamda mavjud tabiiy pigmentlarga nisbatan foydali ish koeffisienti 20% gacha oshganligi tavsiflandi.

6. Ftal angidrid, karbamid, anilin, grafen oksidi va 3d-metall tuzlari asosida olingan yarimoʻtkazgich boʻyoq pigmentlar asosida hosil qilingan kontaktda 15 kun davomida quvvat chiqishini, yaʼni kuchlanish va tok kuchining eng yuqori, oʻrtacha va quyi koʻrsatgich qiymatlari koʻrsatib berildi.

7. Keithley (Model 4200-C) da hosil qilgan volt-amper tahlili asosida yarimoʻtkazgich pigmentlarning tok kuchi va kuchlanish qiymatlari $\text{LaPc} < \text{CrPc} < \text{MnPc} < \text{NiPc} < \text{FePc} < \text{CoPc}$ qatorida ortib borishi aniqlangan. Shuningdek, zichlik funksional nazariyasi (DFT) asosida sintez qilingan pigmentlarning elektron transport, optik faollik va kimyoviy reaktivlik xususiyatlari nuqtai nazardan p-tipga kiruvchi yarimoʻtkazgich materiallar sifatida taklif etildi.

8. Yarimoʻtkazgich pigmentlar asosida olingan tandem quyosh elementlari tomonidan oʻlchangan solishtirma elektr qarshilik ($\text{om} \cdot \text{sm}$) qiymatlari maxsus shaffof shisha taglik substrat $\text{In}_2\text{O}_3 \cdot \text{SnO}_2 < \text{Sitall} < \text{oddiy shisha taglik} < \text{Kremniy (Si)}$ qatorida oshib borishini namoyon qildi hamda turli nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida tegishli qonuniyatlar ishlab chiqildi.

9. Reaksiya haroratini 200 °C dan 300 °C gacha oraliqda saqlangan holda, dastlabki reagentlar mol nisbati, sarflangan vaqt va tegishli haroratda ushlab turish vaqti hamda qoʻshiladigan kislota konsentratsiyasi mahsulotning rang intensivligiga taʼsiri koʻrsatib berildi.

10. Mazkur pigmentlar “NASR SNACK” MCHJ xorijiy korxonasida OʻZBEKISTON-TOJIKISTON qoʻshma korxonasida lok-boʻyoq mahsulotlarini yaxshilash uchun qoʻllanish imkoniyati yaratildi. Natijada, 3d-metall tuzlari saqlagan ftalosianin pigmentlari asosida PF-115 markali emalning yorqin rangli namunalari olish imkoniyati yaratildi.

11. Tandem quyosh elementlari uchun fotoanod sendvich qavat sifatida ishlatiladigan titan oksidi, rux oksidi suspenziyasini olish, shuningdek, quyosh elementlari uchun ishlatiladigan elektrolit eritmalar tarkibi va uni tayyorlash metodikasi tavsiya etildi. Shuningdek, termik barqaror yuqori assimiliyatsiya koeffisientiga ega yarimoʻtkazgich kremniy ftalosianin pigmentini olish texnologiyasi ishlab chiqildi hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi asoslab berildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.31/2025.27.12.T.01.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ДЕНАУСКИЙ ИНСТИТУТ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И
ПЕДАГОГИКИ**

ШУКУРОВ ДИЛМУРОД ХУРСАНОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ОРГАНИЧЕСКИХ
ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ ПИГМЕНТОВ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ
ДЛЯ ТАНДЕМНЫХ СОЛНЕЧНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ**

02.00.14 – Технология органических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора технических наук (DSc)**

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора технических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2026.3.DSc/T1116.

Докторская диссертация выполнена в Денауском институте предпринимательства и педагогики.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.nsumt.uz и информационно-образовательном портале Ziyonet по адресу www.ziyonet.uz.

Научный консультант:

Тураев Хайит Худайназарович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Вапоев Хуснитдин Мирзаевич
доктор технических наук, профессор

Адилов Равшан Иркинович
доктор технических наук, профессор

Файзиев Жахонгир Бахромович
доктор технических наук, старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Каршинский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «3» октября 2026 г. в «9:00» часов на заседании Научного совета DSc.31/2025.27.12.T.01.01 при Навоийском государственном горно-технологическом университете по адресу: 210100, Навоийская область, город Навои, улица Галаба Шох, дом 76в. Тел.: (+99879)-223-49-66, факс: (+99879) 223-53-62, e-mail: info@nsumt.uz.


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за №265). Адрес: 210100, Навоийская область, город Навои, улица Галаба Шох, дом 76в. Тел.: (+99879)-223-49-66, факс: (+99879) 223-53-62, e-mail: info@nsumt.uz.

Автореферат диссертации разослан «16» сентябрь 2026 года.

(Реестр протокола рассылки №27 от «16» 09 2026 года).




Мухиддинов Б.Ф.
Председатель Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.х.н., проф.


Шарипов С.Ш.
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.т.н., доц.


Вапоев Х.М.
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (Автореферат диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Во всем мире в связи с непрерывным ростом численности населения и объемов производства, потребность в энергоресурсах неуклонно возрастает из года в год. В настоящее время одним из наиболее эффективных путей решения существующих энергетических проблем является использование альтернативных источников энергии. Это позволяет не только удовлетворить растущий спрос на энергию, но и снизить себестоимость производства электроэнергии, а также создать недорогие и перспективные солнечные элементы на основе неорганических и органических полупроводниковых материалов. Применение металлокомплексных пигментов на основе фталоцианина в качестве сенсibilизаторов в tandemных солнечных элементах обладает высокой практической значимостью, позволяя повысить их коэффициент полезного действия до 30%. Столь стремительный рост спроса на альтернативные источники энергии ставит перед исследователями задачу разработки нетрадиционных технологий, обладающих высокой теоретической и практической значимостью для производственной сферы. В этом контексте получение недорогой и экологически чистой электроэнергии с использованием фоточувствительных элементов на основе полупроводниковых полимерных материалов и фталоцианиновых красителей, содержащих атомы металлов и неметаллов приобретает особое значение.

В мире активно ведутся научно-исследовательские работы, направленные на создание и производство новых солнечных элементов на основе полупроводниковых металлокомплексных соединений фталоцианина, а также полимерных красителей-пигментов. Солнечные элементы, полученные на основе tandemной структуры, среди используемых на практике аналогов выделяются своей гибкой и простой конструкцией, экологической чистотой, экономической эффективностью и технической безопасностью, благодаря чему сегодня они становятся способными конкурировать с существующими кремниевыми солнечными элементами. В этом направлении особое внимание уделяется созданию tandemных фотоэлементов на основе органических полупроводниковых материалов и их использованию в качестве полупроводниковых соединений, заменяющих оксиды индия и таллия.

В Республике Узбекистан, в рамках стратегического развития химической и энергетической отраслей промышленности, путем внедрения передовых научно обоснованных подходов к получению новых видов полупроводниковых материалов, отвечающих требованиям современности, достигнут ряд значимых научно-практических результатов. Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к «зеленой» экономике до 2030 года» от 2 декабря 2022 года, определены важнейшие задачи по наращиванию производственных мощностей

возобновляемых источников энергии и доведению их доли в общем объеме выработки электроэнергии до 30 процентов и более¹. В этом контексте особую научную и практическую значимость приобретают исследования, направленные на разработку технологии получения металлокомплексных пигментов на основе фталоцианина для tandemных солнечных элементов, выступающих в качестве источника «зеленой» энергии.

Результаты настоящего диссертационного исследования в определенной мере будут способствовать обеспечению исполнения Закона Республики Узбекистан от 21 мая 2019 года № ЗРУ-539 «Об использовании возобновляемых источников энергии», Постановлений Республики Узбекистан № ПП-57 «О мерах по ускорению внедрения возобновляемых источников энергии и энергосберегающих технологий» от 16 февраля 2023 года и № ПП-4805 «О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям химии и биологии» от 12 августа 2020 года, а также реализации задач, закрепленных в других нормативных правовых актах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная научно-исследовательская работа выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан – VII. «Химические технологии и нанотехнологии» и II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². Научные исследования, направленные на получение полупроводниковых пигментных материалов на основе фталоцианина, анилина и графена, а также на использование этих материалов для преобразования солнечной энергии одного из альтернативных источников в дешевую, качественную и экологически чистую электроэнергию, ведутся в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира. В частности, подобные работы проводятся в таких научно-исследовательских центрах, как: Университет Дзэжоу (Юэсин Чжан), Университет науки и технологий Китая, Китайский университет нефти (Восточный Китай), Ульсанский университет (Южная Корея), Университет Палацкого в Оломоуце (Чехия), Тамбовский государственный технический университет (Россия), Ближневосточный технический университет (METU), Университет Мунзур, Университет Кафкас, Университет Фырат (Турция), Государственный университет Сан-Хосе, Массачусетский университет в Амхерсте, Макаоский университет науки и технологий, Калифорнийский университет в Санта-Барбаре (UCSB), Пекинский университет химической технологии (BUCT), Коннектикутский университет, Цукубский университет (Япония), Пенсильванский университет

¹ Постановления Президента Республики Узбекистана от 2 декабря 2022 года № ПП-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к «зеленой» экономике до 2030 года»

² Обзор международных научных исследований по теме диссертации подготовлен на основе сайтов <https://scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com> и других источников.

(Новая Зеландия), Российская лаборатория фотовольтаики (Физико-технический институт им. А.Ф. Иоффе), Институт материаловедения НПО «Физика-Солнце» (Узбекистан), Международный институт солнечной энергетики (Узбекистан), Ташкентский научно-исследовательский институт химической технологии, а также Термезский государственный университет.

В ходе проведенных в мире исследований по получению фотоактивных и фотосенсибилизирующих пигментов на основе фталоцианина, анилина и оксида графена, а также по их применению в производстве дешевой, экологически чистой и альтернативной энергии на основе солнечного света, были получены следующие результаты: эффективность 14,3% с использованием медиатора Red Ox меди (II/I) и порфиринового красителя (Швейцария), сенсибилизированные красителями солнечные элементы с эффективностью 8% на основе натуральных красителей с производными хлорофилла (Малайзия), разработаны материалы для переноса электронов и дырок, содержащие Spiro OMeTAD и CuSCN (Швейцария), получены перовскитные и tandemные солнечные элементы с эффективностью более 15% (Сингапур), разработан однопереходный перовскитный солнечный элемент с эффективностью 26% (Китай), эффективность 33,9% в tandemном солнечном элементе с перовскитно-кремниевой композицией, 14% в перовскитных солнечных элементах на основе олова (Sn) и двойного перовскита Достигнута эффективность солнечного элемента ($\text{Cs}_2\text{AgBiBr}_6$) в 10% (Великобритания), йодид фенилэтиламмония продлил срок службы солнечных элементов (Южная Корея), слои графена и оксида графена улучшили распределение заряда в фотоэлектрических элементах (США), получены стабильные солнечные элементы с сенсибилизацией красителями на основе фталоцианина и пигментов на основе гетеролептических комплексов меди и кальция (Узбекистан).

В мире по приоритетным направлениям создания полупроводниковых пигментов на основе фталоцианина, анилина и оксида графена, применяемых в качестве фотосенсибилизаторов в tandemных и сенсибилизированных красителем солнечных элементах, ведется ряд исследований. В частности, особое внимание уделяется синтезу новых полимерных полупроводниковых материалов, обладающих сенсибилизирующими свойствами, а также красителей и пигментов на основе полиацетилена, политиофена и изоиндола; получению порфириновых и фталоцианиновых красителей с поглощением в видимой и ближней инфракрасной областях спектра; применению природных красителей, таких как хлорофилл и антоцианины, для создания экологически чистых сенсибилизированных солнечных элементов. Кроме того, важнейшее место в решении задач, связанных с масштабированием и внедрением данных технологий в промышленное производство, занимает достижение эффективности tandemных солнечных элементов на уровне свыше 35%. Отдельным приоритетным направлением является разработка технологии получения фталоцианиновых пигментов, содержащих в качестве центрального атома ионы металлов-лантаноидов, а также функциональные

группы с различными электронодонорными атомами в фталоцианиновых кольцах.

Степень изученности проблемы. Во всем мире исследования по получению полупроводниковых пигментов на основе фталоцианина, оксида графена и анилина, а также по улучшению их характеристик и расширению областей применения проводились⁴ такими выдающимися учеными, как Ф. Йелмас, Хидеки Ширакава, Алан Хегер, Алан МакДиармид, Т.В. Верниская, Цюньфэй Чжоу, Чжэнь-Фэй Лю, Тобин Дж. Маркс, Пьер Дарансе, Оуэн Мелвилл, Бенуа Лессар, Тимоти Бендер, А. Дидейкин и Цзинбинь Цзэн.

Среди ученых стран СНГ А.Б. Килимник, Е.Е. Кондракова, И.А. Белогорохов, И. Александрович, Т. Артур и Д. Александр в своих трудах выполнили ряд фундаментальных исследований, посвященных механизмам получения, свойствам и областям применения полупроводниковых металлокомплексных пигментов.

В нашей стране научные изыскания в данной области успешно ведутся рядом ученых, среди которых особо следует отметить А.Т. Джалилов, Х.Х. Тураев, А.М. Насимов, А.Т. Тиллаев, Х.С. Бекназаров, М.У. Каримов, Дж.Б. Файзиев, А.Г. Махсумова, Г.А. Ихтиёрова, Х.Ш. Ташпулатов, М.О. Юсупов, Д.А. Набиев, С.С. Содиков, Ф.Дж. Мирзаева и других исследователей.

Опираясь на вышеизложенные данные, актуальной задачей представляется синтез фоточувствительных полупроводниковых пигментов на основе солей 3d-металлов, солей лантана, хлорида кремния, анилина, фталевого ангидрида и оксида графена, а также всестороннее исследование их полупроводниковых характеристик, структуры и физико-химических свойств с применением современных аналитических методов. Кроме того, важнейшее теоретическое и практическое значение имеют научно обоснованная разработка принципиальной технологической схемы и теоретическое обоснование механизма работы tandemных солнечных элементов, функционирующих на основе фоточувствительных полупроводниковых комплексных пигментов, а также создание высокоэффективной технологии получения новых полупроводниковых материалов, способных стать импортозамещающей продукцией.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование проводилось в рамках фундаментального проекта FL-8323102103 по теме: «Полупроводниковые tandemные солнечные элементы нового поколения и процессы переноса электронов и дырок, ограничивающие их эффективность» на 2024-2028 годы в соответствии с научно-исследовательским планом Термезского государственного университета, а также проекта АК-25-61 на 2025 год по теме: «Синтез полупроводниковых пигментных материалов и их применение для получения солнечных элементов нового поколения» в

³ <https://pubs.acs.org/jpcafh/article-abstract/125/19/4055/584734/Electronic-Structure-of-Metallophthalocyanines-MPC?redirectedFrom=fulltext>

рамках программы «Академическая мобильность», объявленной Агентством по инновационному развитию при Министерстве высшего образования, науки и инноваций.

Целью исследования является разработка технологии получения новых, эффективных, с высоким коэффициентом фотосенсибилизации органических полупроводниковых красителей, чувствительных к солнечному свету для tandemных солнечных элементов.

Задачи исследования:

